

## **TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**Shokirova-Inomjonova Mashxuraxon G‘ayratjon qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini o‘qituvchi yordamchisi  
(o‘quv ishlari bo‘yicha assistent)*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlar, ularning samaradorligi va ularni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik subyektlari, subsidiya, diversifikatsiya, raqobatbardoshlik, preferensiya, monitoring.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlariga qonunchilikda belgilab qo‘yilgan tartibda soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalarini taqdim etish natijasida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va shu bilan bir qatorda imtiyoz va preferensiyalar taqdim etishdan ko‘zlangan maqsad – tadbirkorlik sohani rivojlantirish, o‘zaro raqobatbardoshlikni oshirish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish uchun muhim qadamlardan biri sanaladi.

Shu o‘rinda preferensiya tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak, preferensiya (lot. praferentia – afzal ko‘raman) – biror bir faoliyat turini qo‘llab quvvatlash uchun ayrim davlatlar, korxonalar, tashkilotlarga beriladigan afzalliklar, imtiyozlar. Preferensiyalar soliqlarni kamaytirish, bojxona bojlaridan to‘lovlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar taqdim etish shakllarida amalga oshiriladi. Preferensiya davlat tomonidan beriladi va aniq manzilli harakterga ega bo‘ladi<sup>6</sup>.

Hozirgi iqtisodiy tarmoqlar jadal rivoj topib borayotgan davrda iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion rejalarini qo‘llab-quvvatlashda tadbirkorlik subyektlarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida esa tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyoz va preferensiyalarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Imtiyozlar va preferensiyalarining shaffof va adolatli taqsimlanishi tadbirkorlarning faoliyatini rag‘batlantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi.

Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyozlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2024-yilning 24-may kuni “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarini taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarori qabul qilindi<sup>7</sup>. Mazkur qarorga ko‘ra, yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar ularning reyting

<sup>6</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

<sup>7</sup> “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarini taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori 24.05.2024 yildagi PQ-193-son

darajasidan kelib chiqqan holda joriy etilishi belgilab qo'yilgan<sup>8</sup>. Muhim yangiliklardan biri esa 2025-yilning 1-yanvaridan boshlab subsidiya.mf.uz platformasida tadbirkorlarga davlat tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlashning turlari, muddatlari va tartibini o'z ichiga olgan alohida reestr yuritiladi<sup>9</sup>. Bundan tashqari ushbu platformaning statistika bo'limida statistic ma'lumotlar bilan ya'ni berilgan arizalar, rad etilgan arizalar va to'lab berilgan arizalar haqida ma'lumot berib boriladi.

Demak, tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalar ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda taqdim etilishi bugungi demokratik davlat barpo etishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlarning reyting darajasi pasaygan taqdirda esa, subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etish 3 oy davomida saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, erkin investitsiyaviy muhitini yaratish maqsadida turli xil imtiyozlar va preferensiyalar joriy qilgan. Ushbu imtiyozlar va preferensiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda taqdim etiladi:

Soliq imtiyozlari. Soliq to'lovlarining yengillashtirilishi tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq to'lovchilarni imtiyozli davrlar bilan ta'minlash kabi yengilliklarni taqdim etadi.

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, subsidiyalar va grantlar orqali tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va buning natijasida kichik va o'rta biznes subyektlariga investitsiyaviy muhitni yaratish uchun moliyaviy imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida imtiyozlar va preferensiyalarni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1. Adolatli va shaffof taqsimlash tizimini joriy etish.

Imtiyozlar va preferensiyalarni taqsimlashda shaffoflikni ta'minlash zarur. Bunga esa ochiq tanlovlar, elektron platformalar va tahliliy-monitoring tizimlarini joriy etish orqali erishish mumkin.

2. Yangi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

Kichik va o'rta biznes subyektlariga yangi innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalar va grantlar sonini ko'paytirish kerak. Mazkur tendensiya orqali iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarinitezlashtirish imkoniyati yaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori 24.05.2024 yildagi PQ-193-son

<sup>8</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/26/reyting/>

<sup>9</sup> <https://subsidiya.mf.uz/uz/subsidies/sphere/1>

3. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/26/reyting/>
4. <https://subsidiya.mf.uz/uz/subsidies/sphere/1>